



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No2



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2026-yil, fevral.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukurimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikrarov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirathbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	40
Faxriddinov Temur Faxriddin o'g'li	
TEMIR YO'L YO'LLARINI TA'MIRLASH KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI.....	46
Allabergenov Sherzod Maksudbayevich	
BANKLARNI TRANSFORMATSIYALASH JARAYONIDA INVESTITSION KREDITLASHNING XORIJ TAJRIBASI.....	51
Tuxsanov Eldor Dilmurod o'g'li	
O'ZBEKISTONDA BUDJET OCHIQLIGINI TA'MINLASH BO'YICHA QONUNCHILIK BAZASINING EVOLYUTSIYASI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	55
Mamanov Alisher Umbarovich	
ENERGETIKA TARMOG'I KORXONALARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH YO'LLARI.....	60
Xamdanova Gavxar Absamatovna	
SMART UNIVERSITET MODELINING XALQARO TAJRIBASI VA UNI YANGI O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI.....	65
Saloxiddinova Sitora Baxodir qizi	
IJTIMOIIY OBYEKTlarda QURILISH XIZMATLARINI MOLiyALASHTIRISHNING NAZARIY – ASOSIY TAMOIYILLARI.....	68
Gapparov Azim Qayumovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATIGA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI JORIY ETISH ORQALI RAQOBATBARDOSHLIKNI TA'MINLASH.....	72
Zaripov Shoxboz Alijon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA IJTIMOIIY BARQARORLIKKA TA'SIRI.....	75
Kolmatova Asila Menglimurod qizi	
РОЛЬ GREEN BONDS В МЕЖДУНАРОДНОЙ ФИНАНСОВОЙ СТРАТЕГИИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ.....	81
Н.Т. Бекназарова	
BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK BOSHQARUV VA AUDIT.....	86
Shaymatova Nargiza Ashurovna	
NORASMIY IQTISODIYOTNING MAVJUDLIGINING NAZARIY MASALALARI VA UNI ANIQLASHNING USLUBIY YONDASHUVLARI.....	93
Alimardonov G'ayratjon Nuraliyevich	
DIGITAL TWIN-BASED DECISION SUPPORT FOR COST OPTIMIZATION AND RISK MANAGEMENT IN INFRASTRUCTURE SYSTEMS.....	99
Nelyufar Umarovna Dadabayeva	
PAXTA BO'LAKCHASINING OG'MA TO'RLI YUZA SIRTI BO'YLAB HAVO OQIMI TA'SIRIDAGI HARAKATINING MATEMATIK MODELI.....	108
Karimov Abdusamat	
АДАПТИВНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ К ВНЕШНИМ РИСКАМ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИМ ТЕНДЕНЦИЯМ.....	115
Бабаджанов Шухрат Атахмович	
“TIBBIYOT BOZORINING UZLUKSIZ RIVOJLANISHI UCHUN MEKANIZMLARNI TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI”.....	120
Abdumalikov Shoxjahon Jaloliddin o'g'li	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MEHNAT BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI VA BANDLIKKA TA'SIRI.....	124
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	



XORAZM VILOYATIDA ETNOGRAFIK TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINING AHAMIYATI	129
Ro'zimatova Shaxlo Baltaboy qizi	
THE FEAR OF MISSING OUT (FOMO) EFFECT IN ADVERTISING AND ITS NEUROPSYCHOLOGICAL IMPACT ON IMPULSE BUYING	134
Negmatov Nodir Nozimovich	
O'ZBEKISTONDA TRANSPORT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLARI VA TENDENSIYALARI TAHLILI.....	139
Aйтиева Sevara	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALARNI BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	144
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI	149
Abdullayeva Matluba Nematovna, Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li	



YASHIL IQTISODIYOTNING MOHIYATI VA O'ZBEKISTON UCHUN AHAMIYATI

Abdullayeva Matluba Nematovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TSUE)

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

“Korporativ iqtisodiyot va boshqaruv” kafedrası

E-mail: m.abdullayeva@tsue.uz

ORCID ID: 0000-0002-5346-4664

Nuriddinov Kamoliddin Faxriddin o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TSUE)

“Krems transmilliy dasturlar” kafedrası o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

E-mail: k.nuriddinov@tsue.uz

ORCID ID: 0009-0003-9127-6642

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot konsepsiyasining mohiyati va uning nazariy asoslari yoritilib, Buyuk Britaniya hamda Avstraliya misolida xalqaro amaliyotdagi muvaffaqiyatli tajribalar tahlil qilinadi. O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tishning dolzarbligi energetika sektorining qazib olinadigan yoqilg'ilarga yuqori darajada qaramligi, iqlim o'zgarishi jarayonlarining kuchayishi va resurslar tanqisligi bilan asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari yashil o'tish nafaqat ekologik zarurat, balki iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili ekanini ko'rsatadi. Shuningdek, qiyosiy tahlil asosida yashil iqtisodiyotga o'tishning strategik ustuvor yo'nalishlari aniqlanadi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, resurslar samaradorligi, O'zbekiston iqtisodiyoti.

Abstract. This article examines the essence and theoretical foundations of the green economy concept and analyzes successful international practices using the cases of the United Kingdom and Australia. The relevance of the transition to a green economy in Uzbekistan is justified by the high dependence of the energy sector on fossil fuels, the increasing impact of climate change, and growing resource scarcity. The findings show that the green transition is not only an environmental necessity but also an important factor in enhancing economic stability and competitiveness. The study also identifies strategic priorities for the development of the green economy based on a comparative approach.

Key words: green economy, sustainable development, energy efficiency, renewable energy sources, resource efficiency, economy of Uzbekistan.

Аннотация. В статье рассматриваются сущность и теоретические основы «зелёной» экономики, а также анализируется успешный международный опыт на примере Великобритании и Австралии. Актуальность перехода к «зелёной» экономике в Узбекистане обосновывается высокой зависимостью энергетического сектора от ископаемого топлива, усилением последствий изменения климата и дефицитом ресурсов. Результаты исследования показывают, что «зелёный» переход является не только экологической необходимостью, но и важным фактором повышения экономической устойчивости и конкурентоспособности. На основе сравнительного анализа определяются стратегические приоритеты развития «зелёной» экономики.

Ключевые слова: зелёная экономика, устойчивое развитие, энергоэффективность, возобновляемые источники энергии, эффективность использования ресурсов, экономика Узбекистана.



KIRISH

So'nggi o'n yilliklar davomida an'anaviy iqtisodiy model insoniyatga yuqori daromad, texnologik taraqqiyot va global raqobatning kuchayishini ta'minlab berdi. Biroq mazkur o'sish jarayoni ekologik degradatsiya, tabiiy resurslarning cheklanishi hamda iqlim o'zgarishining kuchayishiga olib kelmoqda [1]. Bu holat inson farovonligi bilan tabiiy muhit o'rtasida keskin muvozanatsizlikni yuzaga keltirmoqda.

Robert Brears ta'kidlaganidek, iqtisodiy yutuqlar ko'pincha ekologik talafotlar evaziga qo'lga kiritilgan bo'lib, ushbu holat amaldagi iqtisodiy paradigмага qayta baho berishni taqozo etadi. Shu sababli Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan yondashuvlarni ilgari surmoqda [2].

Yashil iqtisodiyot — past karbonli rivojlanish, energiya va suv resurslaridan samarali foydalanish hamda ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslangan iqtisodiy modeldir. Ushbu yondashuvda iqtisodiy o'sish tabiiy kapitalni asrab-avaylash bilan uyg'un holda amalga oshiriladi [3]. OECD esa yashil iqtisodiyotni resurslardan oqilona foydalanish asosida uzoq muddatli farovonlikni ta'minlaydigan strategik yo'nalish sifatida tavsiflaydi [4].

Iqlim o'zgarishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi va demografik bosimning ortishi yashil iqtisodiyotga o'tishni global zaruratga aylantirdi [5]. Natijada ko'plab mamlakatlar resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish hamda yangi "yashil" ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan siyosatlarini faol amalga oshirmoqda [6].

Mazkur maqolaning maqsadi — xalqaro tajriba va ilmiy yondashuvlar asosida O'zbekistonning yashil iqtisodiyotga o'tish ehtiyoji hamda strategik ustuvor yo'nalishlarini asoslab berishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot (green economy) — bu iqtisodiy o'sishni ta'minlash jarayonida ekologik xavflarni kamaytirish va inson farovonligini oshirishga qaratilgan iqtisodiy model bo'lib, unda past karbonli rivojlanish va resurslardan oqilona foydalanish tamoyillari asosiy o'rin tutadi [7]. Ushbu yondashuvda iqtisodiy faoliyat natijasida yuzaga keladigan ekologik zararlarni minimallashtirish hamda tabiiy kapitalni iqtisodiyotning muhim aktivlaridan biri sifatida boshqarish zarurati alohida ta'kidlanadi [8].

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi — UNEP (United Nations Environment Programme) ma'lumotlariga ko'ra, yashil iqtisodiyot tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, biologik xilmaxlilikni saqlash va ijtimoiy adolatni ta'minlash bilan birga iqtisodiy o'sishni davom ettirishga xizmat qiladi [9]. Bu esa iqtisodiy siyosatni shakllantirishda ekologik omillarni tizimli ravishda hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Yashil iqtisodiyot konsepsiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida Green Growth barqaror iqtisodiy rivojlanish jarayonida tabiiy aktivlarni saqlash va ularning ishlab chiqarishga qo'shayotgan hissasini oshirishga qaratilgan strategiya sifatida talqin etiladi [10].

So'nggi yillarda suv-energiya-oziq-ovqat o'zaro bog'liqligi konsepsiyasi — WEF Nexus (Water-Energy-Food Nexus) ham yashil iqtisodiyotning muhim ilmiy tamoyillaridan biri sifatida shakllanmoqda. Ushbu yondashuv resurslar tanqisligi kuchayib borayotgan sharoitda suv, energiya va oziq-ovqat xavfsizligini integratsiyalashgan boshqaruv orqali ta'minlashni nazarda tutadi [11].

WEF Nexus modeli barqaror rivojlanishda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bir resursdagi tanqislik boshqalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, energiya ishlab chiqarish suv resurslariga bog'liq, qishloq xo'jaligi esa suv va energiya bilan chambarchas uzviy aloqada rivojlanadi [12]. Shu sababli ko'plab davlatlar ushbu tizimli boshqaruv yondashuvini o'z iqtisodiy strategiyalariga integratsiyalashni boshlamoqda.

Xulosa qilib aytganda, ilmiy adabiyotlar yashil iqtisodiyotning nazariy asoslari resurslardan samarali foydalanish, ekotizimlarning barqarorligini ta'minlash va ijtimoiy adolatni kuchaytirish tamoyillariga tayanishini tasdiqlaydi. Ushbu tamoyillar keyingi bo'limlarda tahlil qilinadigan global tajribalar misolida amaliy mazmun bilan boyitiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yashil iqtisodiyot konsepsiyasini tahlil qilish maqsadida qiyosiy tahlil hamda ikkilamchi ma'lumotlarni tahlil qilish metodlaridan foydalanildi. Metodologiya tanlash jarayonida yashil iqtisodiyotning ekologik, iqtisodiy va institutsional jihatlar o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqildi.

Tizimli yondashuv asosida resurslardan foydalanish samaradorligi, past karbonli rivojlanish va ijtimoiy farovonlik o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilindi. Shuningdek, tadqiqotda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (United Nations), Jahon banki (World Bank), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (Organisation for Economic Co-operation and Development, OECD) hamda Xalqaro energetika agentligi (International Energy Agency, IEA) hisobotlari asosiy axborot manbalari sifatida qo'llanildi.



Mazkur metodologik yondashuvlar asosida olingan natijalar keyingi bo'limda xalqaro tajriba va O'zbekiston sharoiti misolida tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyot tamoyillarining amaliy natijalari suv xo'jaligi va kommunal infratuzilma sohalarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Quyida Buyuk Britaniya hamda Avstraliya tajribalari suv–energiya–oziq-ovqat o'zaro bog'liqligi (WEF Nexus — Water–Energy–Food Nexus) yondashuvi doirasida qanday natijalarga erishilayotganini ko'rsatadi [13].

Buyuk Britaniya tajribasi (Jaywick, Essex)

Jaywick (Essex, Buyuk Britaniya) shahridagi suvni qayta ishlash markazida 3 312 ta quyosh paneli o'rnatilgan bo'lib, ular obyektning elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojining 36 foizini qoplaydi [13]. Ushbu loyiha natijasida:

- yiliga 300 tonnadan ortiq karbon emissiyasi kamaytirildi;
- energiya xarajatlari pasaydi;
- eng yuqori yuklama sharoitida 200 ta uy xo'jaligini elektr energiyasi bilan ta'minlash imkoniyati yaratildi;
- 2030-yilga qadar to'liq karbon neytrallikka (carbon neutrality) erishish strategiyasi ilgari surildi.

Natijada quyosh energiyasidan foydalanish suv infratuzilmasida iqtisodiy va ekologik barqarorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Avstraliya tajribasi (Yarra Valley Water, Melburn)

Melburndagi Yarra Valley Water (Avstraliya) kompaniyasi tomonidan 2017-yilda ishga tushirilgan Food-to-Energy (oziq-ovqat chiqindilaridan energiya olish) loyihasi yiliga 33 000 tonna oziq-ovqat chiqindisini qayta ishlaydi [13]. Ushbu inshoot:

- suvni tozalash obyektining energiya ehtiyojini to'liq ta'minlaydi;
- ortiqcha energiyani milliy elektr tarmog'iga sotadi;
- poligonlarga tashlanadigan chiqindilar hajmini sezilarli darajada kamaytiradi;
- iste'molchilar uchun suv narxlarini barqarorlashtirishga yordam beradi.

Bunda qayta ishlash tizimida energiyaning yopiq sikli ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni kuchaytiradi va chiqindini resursga aylantiradi.

O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotga o'tish global tendensiyalarga moslashish bilangina cheklanmay, balki milliy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqarorligi, resurslardan foydalanish samaradorligi va ijtimoiy farovonlikni ta'minlash uchun ham muhim strategik yo'nalish hisoblanadi. Ushbu yondashuv mamlakatda iqlim o'zgarishiga moslashish, ekologik xavflarni kamaytirish hamda iqtisodiy o'sishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni ko'zda tutadi [15].

O'zbekiston Respublikasida yashil iqtisodiyotga o'tish masalalari 2019–2030-yillarga mo'ljallangan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi"da aniq belgilab berilgan. Mazkur hujjatda energiya samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish hamda ekologik boshqaruv mexanizmlarini kuchaytirish ustuvor vazifalar sifatida qayd etilgan [15]. Strategiya yashil iqtisodiyot tamoyillarini davlat siyosati va tarmoq dasturlariga integratsiya qilish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" Umumiy strategiyasida yashil iqtisodiyotga o'tish mamlakat iqtisodiy modelini modernizatsiya qilishning muhim yo'nalishi sifatida belgilangan. Ushbu strategiyada iqlim o'zgarishi, resurslarning cheklanganligi va ekologik tahdidlar sharoitida iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun past karbonli rivojlanish, iqtisodiy diversifikatsiya hamda ijtimoiy inklyuzivlikni kuchaytirish zarurligi ta'kidlangan [16].

Jahon banki tomonidan tayyorlangan "Towards a Greener Economy in Uzbekistan" nomli hisobotda O'zbekiston uchun yashil o'tishning asosiy yo'nalishlari batafsil tahlil qilingan. Hisobotda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, past karbonli texnologiyalarni joriy etish, yer va landshaftlarni tiklash orqali nafaqat ekologik holatni yaxshilash, balki iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari mavjudligi ko'rsatib berilgan [17]. Mazkur yondashuv energetika, qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligi sohalarida tizimli barqaror o'sishga zamin yaratadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining O'zbekiston bo'yicha Common Country Analysis (Mamlakat bo'yicha umumiy tahlil) hisobotida mamlakatning rivojlanish ustuvor yo'nalishlari global Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals) bilan uyg'un holda amalga oshirilayotgani qayd etilgan. Ushbu hujjatda ekologik barqarorlik, ijtimoiy tenglik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash O'zbekiston uchun asosiy vazifalardan biri sifatida ko'rsatiladi [18].

1-jadvalda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha asosiy strategik hujjatlar va ularning ustuvor yo'nalishlari tizimli ravishda keltirilgan bo'lib, ular mamlakatda past karbonli rivojlanish, resurslar samaradorligi



va ekologik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan yagona strategik yondashuv shakllanayotganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha asosiy strategik hujjatlar va ustuvor yo'nalishlar¹

№	Strategik hujjat nomi	Muddati	Asosiy maqsadlar	Ustuvor yo'nalishlar	Yashil iqtisodiyot bilan bog'liqligi
1	2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi	2019–2030	Iqlim barqarorligini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish	Energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya, suv va yer resurslarini muhofaza qilish	Yashil iqtisodiyotga o'tishning asosiy normativ-huquqiy bazasi
2	“O'zbekiston – 2030” strategiyasi	2023–2030	Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va barqaror o'sishni ta'minlash	Past karbonli rivojlanish, iqtisodiy diversifikatsiya, innovatsiyalar	Yashil iqtisodiyot mamlakat rivojlanishining ustuvor yo'nalishi sifatida belgilangan
3	Energiya samaradorligini oshirish bo'yicha davlat dasturlari	2020–2030	Energiya sarfini qisqartirish va tejamlilikni oshirish	Sanoat va uy-joy sektorida energiya tejovchi texnologiyalar	Karbon emissiyasini kamaytirish va resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish
4	Qayta tiklanuvchi energiyani rivojlantirish konsepsiyasi	2020–2030	Energiya manbalarini diversifikatsiya qilish	Quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish	Past karbonli energetika orqali yashil o'sishni ta'minlash
5	Suv resurslarini boshqarish strategiyasi	2021–2030	Suv tanqisligini kamaytirish va samarali boshqaruvni ta'minlash	Tomchilatib sug'orish, suv tejovchi texnologiyalar	Water–Energy–Food bog'liqligini (WEF Nexus — Water–Energy–Food Nexus) boshqarish
6	Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish dasturlari	2020–2030	Oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash	Resurs tejovchi agrotexnologiyalar, ekologik ishlab chiqarish	Oziq-ovqat tizimida yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish
7	Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha milliy dasturlar	Doimiy	Ekologik xavflarni kamaytirish	Chiqindilarni boshqarish, landshaftlarni tiklash	Ekotizimlarning chidamliligini ta'minlash
8	Jahon banki va xalqaro tashkilotlar tavsiyalari	2022–2025	Yashil o'tishni jadallashtirish	Resurslardan samarali foydalanish, past karbonli texnologiyalar	Amaliy mexanizmlar va investitsiya yo'nalishlari
9	BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlariga moslashuv siyosati	2015–2030	Ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik muvozanatni ta'minlash	SDG integratsiyasi, inklyuziv rivojlanish	Xalqaro majburiyatlar asosida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish

Energetika sohasidagi amaldagi holat mamlakat iqtisodiyotining an'anaviy yoqilg'i resurslariga yuqori darajada bog'liqligini ko'rsatadi. Xalqaro Energetika Agentligi ma'lumotlariga ko'ra, energiya ishlab chiqarish tarkibida qazib olinadigan yoqilg'ilar ulushi hanuz yuqori bo'lib qolmoqda, bu esa energetik xavfsizlik va ekologik barqarorlik nuqtai nazaridan muayyan xatarlarni keltirib chiqaradi [19]. Shu bois quyosh va shamol energetikasini rivojlantirish, energiya samaradorligini oshirish hamda suv resurslarini integratsiyalashgan holda boshqarish O'zbekistonning iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yashil iqtisodiyotga o'tish masalasi O'zbekiston uchun uzoq muddatli istiqboldagi reja emas, balki yaqin yillarda kechiktirib bo'lmaydigan strategik zaruratdir. Buning birinchi sababi — iqlim o'zgarishi va resurslar tanqisligining jadallashuvidir. Mamlakat hududida suv resurslari hajmining kamayib borayotgani, qurg'oqchilik xavfining kuchayishi hamda yer degradatsiyasi jarayonlarining jadallashuvi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari, xususan, qishloq xo'jaligi va energetika barqarorligiga bevosita tahdid solmoqda [15].

¹ Ushbu jadval mualliflar tomonidan O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha strategik va normativ-huquqiy hujjatlari, shuningdek, xalqaro tashkilotlarning tahliliy materiallari asosida tuzilgan. Jumladan, Jahon bankining “Towards a Greener Economy in Uzbekistan” hisoboti (World Bank — <https://documents1.worldbank.org/curated/en/099920009092215042/pdf/P17852214a422b0d7193c41dac9a52927a4.pdf>), Birlashgan Millatlar Tashkiloti hamda BMT Taraqqiyot Dasturining O'zbekiston bo'yicha iqlim va barqaror rivojlanishga oid hujjatlari (UNDP — <https://www.undp.org/uzbekistan>), shuningdek, Xalqaro Energetika Agentligining mamlakat energetika profili bo'yicha materiallaridan (IEA — <https://www.iea.org/countries/uzbekistan>) foydalanilgan.



Ikkinchi muhim omil — energetika sektorining an'anaviy yoqilg'iga yuqori darajada qaramligidir. Energiya ishlab chiqarishda qazib olinadigan yoqilg'ilar ulushining yuqoriligi iqtisodiy xavfsizlik, eksport salohiyati va ekologik barqarorlik nuqtai nazaridan muayyan xatarlarni yuzaga keltiradi. Shu bois energiya manbalarini diversifikatsiya qilish va qayta tiklanuvchi energiya ulushini oshirish choralari kechiktirilsa, kelgusida iqtisodiy xarajatlarning yanada ortishi ehtimoli mavjud [19].

Uchinchi sabab — xalqaro iqtisodiy raqobat va "yashil talablar"ning tobora kuchayib borishidir. Bugungi kunda eksport bozorlarida ekologik standartlar, karbon izi ko'rsatkichlari va barqaror ishlab chiqarish talablari muhim mezonlarga aylanmoqda. Agar O'zbekiston ishlab chiqarish va boshqaruv tizimlarini yashil iqtisodiyot tamoyillariga moslashtirishni kechiktirsa, bu holat mamlakat mahsulotlarining xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [16].

To'rtinchi jihat investitsiya va moliyalashtirish imkoniyatlari bilan bog'liq. Xalqaro moliya institutlari va donor tashkilotlar tomonidan ajratilayotgan mablag'larning tobora katta qismi aynan yashil loyihalar, past karbonli texnologiyalar va barqaror infratuzilmalarga yo'naltirilmoqda. Ushbu jarayonda faol ishtirok etish uchun institutsional tayyorgarlik va siyosiy qarorlar o'z vaqtida qabul qilinishi lozim, aks holda mavjud moliyaviy imkoniyatlar boy berilishi mumkin [17].

Nihoyat, yashil iqtisodiyotga o'tishni kechiktirish kelajak avlodlar zimmasiga ekologik va iqtisodiy yukning ortishiga olib keladi. Resurslardan samarasiz foydalanish, chiqindilar hajmining ko'payishi va ekologik muammolarning chuqurlashuvi ularni bartaraf etish uchun keyinchalik ancha yuqori xarajatlarni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, bugungi kunda qabul qilinadigan qarorlar nafaqat joriy iqtisodiy natijalarga, balki mamlakatning uzoq muddatli rivojlanish trayektoriyasiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi [18].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot konsepsiyasining nazariy asoslari, xalqaro amaliyotdagi muvaffaqiyatli misollar hamda O'zbekiston sharoitidagi dolzarblik masalalari tahlil qilindi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyotga o'tish bugungi kunda O'zbekiston uchun uzoq muddatli istiqbol masalasi emas, balki yaqin yillarda amalga oshirilishi zarur bo'lgan strategik vazifa hisoblanadi. Energetika sektorining qazib olinadigan yoqilg'ilarga yuqori darajada qaramligi, suv resurslari tanqisligining kuchayib borishi va iqlim o'zgarishi jarayonlarining jadallashuvi mazkur yo'nalishda islohotlarni tezlashtirish zaruratini yanada kuchaytirmoqda. Xalqaro tajriba, xususan Buyuk Britaniya va Avstraliyada amalga oshirilgan amaliy loyihalar shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida joriy etilgan tashabbuslar nafaqat ekologik foyda keltiradi, balki iqtisodiy tejamkorlikni ta'minlaydi, energiya xavfsizligini mustahkamlaydi hamda ijtimoiy barqarorlikni oshiradi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tajribalar O'zbekiston uchun muhim metodologik va amaliy ahamiyatga ega. Olib borilgan tahlil natijalariga tayangan holda energetika sektorida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini jadal rivojlantirish va qazib olinadigan yoqilg'ilarga qaramlikni bosqichma-bosqich kamaytirish, suv—energiya—oziq-ovqat bog'liqligini hisobga olgan holda resurslarni integratsiyalashgan tarzda boshqarish mexanizmlarini kuchaytirish, sanoat va qishloq xo'jaligida energiya hamda resurs samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni keng joriy etishni rag'batlantirish, yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun institutsional va moliyaviy mexanizmlarni takomillashtirish hamda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, shuningdek, yashil iqtisodiyot sohasida kadrlar tayyorlash va ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish muhim vazifalar sifatida namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, yashil iqtisodiyotga o'tish O'zbekiston uchun ekologik zarurat bo'lishi bilan birga, iqtisodiy imkoniyatlar va milliy raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili ham hisoblanadi va ushbu yo'nalishda o'z vaqtida hamda izchil qabul qilinadigan qarorlar mamlakatning barqaror rivojlanish trayektoriyasini belgilab beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Brears, R. (2021). The Green Economy. Medium. Olingan manba: <https://medium.com/mark-and-focus/the-green-economy-40754644bb17>
2. United Nations. (2015). Transforming Our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development (A/RES/70/1). New York: United Nations. Olingan manba: <https://docs.un.org/en/A/res/70/1>
3. UNEP. (2023). Global Environment Outlook 6 (GEO-6): Healthy Planet, Healthy People. Nairobi: United Nations Environment Programme. Olingan manba: <https://www.unep.org/resources/global-environment-outlook-6>
4. OECD. (2022). GreenGrowthIndicators(database/dataset). OECDDataExplorer/OECD.Stat. Olingan manba: https://data-explorer.oecd.org/vis?df%5Baq%5D=OECD.ENV.EPI&df%5Bds%5D=DisseminateFinalDMZ&df%5Bid%5D=DSD_GG%40DF_GREEN_GROWTH
5. IEA. (2024). World Energy Outlook 2024. Paris: International Energy Agency. Olingan manba: <https://www.iea.org/events/world-energy-outlook-2024>
6. World Bank. (2023). Uzbekistan – Environmental Sustainability Review. Washington, DC: World Bank Group. Olingan manba: <https://documents.worldbank.org/en/publication/documents-reports/documentdetail/099920009092215042>



7. United Nations Environment Programme. (2019). Global Environment Outlook – GEO-6: Healthy Planet, Healthy People. Nairobi: UNEP. Olingan manba: <https://www.unep.org/resources/global-environment-outlook-6>
8. OECD. (2015). Towards Green Growth? Green Growth Studies. Paris: OECD Publishing. Olingan manba: https://www.oecd.org/en/publications/2015/07/towards-green-growth_g1g53897.html
9. UNEP. (2016). Global Green Economy Index (GGEI) – overview. Nairobi: UNEP. Olingan manba: <https://www.unep.org/news-and-stories/news/global-green-economy-index-out-and-sweden-tops-list>
10. World Commission on Environment and Development. (2017). Our Common Future (Brundtland Report). United Nations General Assembly document A/42/427. Olingan manba: https://sswm.info/sites/default/files/reference_attachments/UN%20WCED%201987%20Brundtland%20Report.pdf
11. Food and Agriculture Organization of the United Nations. (2014). The Water–Energy–Food Nexus: Concept Note. Rome: FAO. Olingan manba: <https://openknowledge.fao.org/server/api/core/bitstreams/86fe97cc-4a38-4511-a37f-8eb8ea8fe941/content>
12. Biggs, E. M., Bruce, E., Boruff, B., et al. (2015). Sustainable development and the water–energy–food nexus: A perspective on livelihoods. Environmental Science & Policy, 54, 389–397. <https://doi.org/10.1016/j.envsci.2015.08.002>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019). 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida (PQ-4477, 04–10–2019). Toshkent. Olingan manba: <https://lex.uz/docs/-4539502>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2023). “O'zbekiston – 2030” strategiyasi (PF-158, 11–09–2023). Toshkent. Olingan manba: <https://lex.uz/docs/-6600413>
15. World Bank. (2022). Towards a Greener Economy in Uzbekistan: Strategic Directions for Resource Efficiency and Sustainable Growth. Washington, DC: World Bank Group. Olingan manba: <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/7046a76c-f533-5846-83e4-7dde22f2ad03>
16. United Nations. (2023). Common Country Analysis: Uzbekistan (2023 update). New York: United Nations. Olingan manba: <https://uzbekistan.un.org/en/260548-un-common-country-assessment-2023-update>
17. International Energy Agency. (2020). Uzbekistan Energy Profile. Paris: IEA. Olingan manba: <https://www.iea.org/reports/uzbekistan-energy-profile>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>